



O'ZLASHMA SO'ZLARNING SEMANTIK TARAQQIYOTI

Qarshiyeva Xolida Azamat qizi

Samarqand davlat universiteti 2-bosqich magistranti

karshiyevaxolida97@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada o'zbek tilidagi leksik o'zlashmalar va ularning o'zbekcha izohi keng tahlil qilingan. O'zbek tili leksikasining rivojlanib va boyib borishi natijasida sinonimik komponentlarning kengayishi, yangilanib borishiga sabab bo'luvchi omillar ilmiy asoslanib berilgan. Bunday xususiyatlar o'zbek tilidagi so'z o'zlashtirish jarayonining tezlashishiga olib kelishi, lisoniy hodisalarning ekstralingvistik, ya'ni nolisoniy omillar bilan bog'liqligi misollar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Leksikologiya, leksikografiya, nutq madaniyati, o'zlashma so'zlar, tilning lug'at tarkibi, baynalminal so'zlar, sinonimlar, ekstralingvistik.

Аннотация: В статье подробно анализируются лексические приобретения в узбекском языке и их узбекская интерпретация. В результате развития и обогащения лексики узбекского языка на научной основе приведены факторы, вызывающие расширение и обновление синонимичных компонентов. Такие особенности приводят к ускорению процесса усвоения слов в узбекском языке, а на основе примеров выделяется связь языковых явлений с экстралингвистическими, т. е. внеязыковыми факторами.

Ключевые слова: лексикология, лексикография, культура речи, заимствованные слова, лексика языка, интернациональные слова, синонимы, экстралингвистика.

Abstract: As a result of the development and enrichment of the lexicon of the Uzbek language, the factors that cause the expansion and renewal of synonymous components are given on a scientific basis. Such features lead to the acceleration of the process of acquiring words in the Uzbek language, and the connection of linguistic phenomena with extralinguistic, i.e., non-linguistic factors, is highlighted on the basis of examples.

Key words: Lexicology, lexicography, speech culture, adopted words, vocabulary of the language, international words, synonyms, extralinguistic.

Jamiyat qanchalik rivojlanib borsa, tilga ongli ravishda munosabat ham kuchayib boradi. Chunki til kishilar orasidagi aloqa vositasi bo'lishi bilan birga, har bir inson va xalqning tafakkur tarzini ham namoyon etadi. Adabiy til esa grammatik qurilishi, lug'at tarkibi jihatidan ma'lum bir me'yorga keltirilgandir. Adabiy til so'zlarni qonuniy ravishda bir xilda ishlatishni, uslubda so'z ma'nosidan to'g'ri foydalanishni hamda jumlaning grammatik to'g'ri tuzishni talab qiladi. Bundan tashqari, so'zlarni orfoepik me'yor asosida talaffuz etishni ham taqozo qiladi. Tilning yaratuvchisi ham, tarqatuvchisi ham xalq ekan, adabiy tilni umumxalq mulki deyish mumkin. Shu ma'noda adabiy til me'yori xalqchil, zamonaviy bo'lishi bilan birga til taraqqiyotini ham aks ettirishi kerak. Zero, me'yor tilning ijtimoiy vazifa bajarishdagi asosiy sharti bo'lib, unga amal qilish, shu tilda so'zlashuvchilar uchun majburiydir.



Darvoqe, hozirgi o'zbek adabiy tili leksikasi jamiyat hayotidagi har bir o'zgarishni aks ettirib, yangilanib va rivojlanib bormoqda. O'tgan asrning so'ngida o'zbek tilining davlat tili maqomini olishi, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining e'lon qilinishi sohalarning kengayishi va rivojlanishiga, bu esa o'zbek tili leksik qatlamining boyishiga, balki sinonimik komponentlarning kengayishiga, yangilanib borishiga sabab bo'ldi. Bu xususiyatni o'zbek tilining so'z o'zlashtirish jarayonining tezlashganligi bilan baholash mumkin.

O'zlashma so'zlar uni o'zlashtirgan tilning qonun-qoidalariga moslashadi, shu tilga singib ketadi. Aks holda, u to'liq o'zlashmagan hisoblanib, shu tilning lug'atida "begona"ligi, "o'zga"ligi sezilib turadi. O'zbek tili lug'at tarkibidagi o'zlashma so'zlar so'zlashuv tili orqali ham, adabiy til orqali ham o'zlashgan bo'lishi mumkin. Tilning tarixiy taraqqiyoti natijasida so'zlarning muayyan qismi o'z o'rnini boshqa yangi so'zlarga bo'shatib beradi, ya'ni arxaik yoki tarixiy so'zga aylanadi. Tildagi bu holat ya'ni o'zlashma so'zlar kirib kelishining ijobiy va salbiy tomonlari ham bor, albatta. Ijobiy jihati til lug'at tarkibining boyishi bo'lsa, salbiy jihati – asl turkiy so'zlarning iste'moldan chiqib ketishidir. Ko'rinadiki, xalqlar o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy aloqalar tilga turlicha ta'sir qilar ekan.

Olima D.Hasanova bir tildan boshqa tilga o'tayotgan lisoniy birliklarning, o'zlashishi o'ziga xos lisoniy shart-sharoitlar bilan belgilanishini aytadi:

1) olinmaning so'z qabul qilgan tilning fonetik va morfologik qonuniyatlari ta'sirida me'yorga kirishi;

2) nutqda, uning har xil uslublarida muntazam qo'llana olishi, muallifi har xil asarlarda keng ishlatila olish imkoniyatiga ega bo'lishi;

3) so'z o'zlashtirgan tilning so'z yasash qonun-qoidalariga bo'ysunishi va so'z yasash jarayonida faoliyat ko'rsata olishi;

4) so'z o'zlashtirgan tilda shu tilga mansub lisoniy birliklar bilan frazeologik iboralar hosil qilish imkoniyatiga ega bo'la olishi; tildagi boshqa lug'aviy birliklar bilan ayni bir (mushtarak) ma'noda qo'llanmaslik, ma'no farqlash xususiyatiga ega bo'lish kabilar [Hasanova, 2011: 21-22].

A.Nurmonovning fikricha, o'zlashmalarning o'zaro nisbati ob'ektiv ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar ta'siri ostida turli davrlarda turlicha bo'lgan. O'zbek tiliga so'z o'zlashtirish jarayoni hozirgi kunda majburiylik asosida emas, balki tillar rivojlanishining ob'ektiv qonuniyatlariga mos holda amalga oshmoqda. Lekin sobiq sho'rolar davrida o'zbek adabiy tili leksikasiga, ayniqsa, uning terminologiyasiga ko'plab ruscha, baynalmilal so'zlar zo'rma-zo'raki kiritildi. O'zbek tili davlat tili maqomini olgandan keyingi davrda shunday so'zlar o'zbek tilida avvaldan mavjud bo'lgan so'z va terminlar bilan almashtirilmogda [Nurmonov, 2012: 31].

B.Mengliev o'zining "Hozirgi o'zbek tili" darsligida leksikaga yangi kirib kelayotgan so'zlarning tilga singishi sekinlik bilan kechishini e'tirof etar ekan, qabul qiluvchi tilning ayrim talablariga javob berishi zarurligini aytadi:

1) farqlanish. Til, avvalo, yozma va og'zaki nutqqa ayri-ayri talablarni qo'yadi. Masalan, dorixona so'zi yozma nutqqa, o'zlashma apteka esa og'zaki nutq uchun xos. Lekin ikkalasi ham me'yoriy hisoblanadi.



2) qulaylik. O'zbek tilida oblast va viloyat, plan va reja, programma va dastur so'zlaridan ikkinchilari, qaysi tilga mansubligidan qat'i nazar, talaffuz va imlo jihatidan qulay. Shuning uchun til qulay variantni tanlaydi;

3) zamonaviylik. Imlo qoidalarida, tilning muosir izohli va imlo lug'atlarida u yaratilayotgan davr ruhi aks etishi katta ahamiyatga ega. Masalan, bek so'zini polkovnik, beklarbegi birikmasini polkovnik, qozi so'zini sudya so'zlari olishi yangi zamon talabidir [Mengliyev, 2018: 108].

Darhaqiqat, keltirilgan talablar nihoyatda o'rinli. Lekin yoshlarning nutqida o'zlashmalardan foydalanishga nihoyatda moyillik bor. Keltirilgan qulaylik talabini yoshlarning tanloviga osonlikcha topshirib bo'lmaydi. Lekin ularga bu hodisani senzura qilib ham bo'lmaydi. Shunga ko'ra milliy til, davlat tili, xalq tili tushunchalarini millat taqdiri bilan bog'lab singdira olinsa, o'zlashmalarni qo'llashda me'yorni saqlab qolish mumkin bo'ladi

Bugungi kun fan va ta'limdagi dunyoning zamonaviy bilimlari sanoqli tillar doirasida jahonga ulashilyapti. Ta'lim jarayonidagi dunyo bilimlari integratsiyasi soha atamaları baynalmilallashuviga sabab bo'lyapti. Davlatlar o'rtasidagi sohalarning yaqin hamkorligi terminlar ifodalaydigan tushunchalarni oson va tez tushunishni talab etadi. Bundan tashqari, xalqaro standartlar, shartnoma va bitimlarning muayyan tillardagina e'lon qilinishi ham tillararo neologizlar ommalashuvini keltirib chiqaryapti. Ishlab chiqarish va sanoatning quyi bo'g'inlarigacha nanotexnologiyalarning joriy qilinishi, texnologik yo'riqnomalarining ko'proq ingliz tilida yuritilishi, ta'lim, fan va ishlab chiqarish jarayonidagi nom, atama, termin, ism, neym, nomenklatura kabilarining dunyo bo'ylab tez va oson tushunish va tarqatish kabi hodisalar talqini ham ulkan miqdordagi so'zlarning tillararo transformatsiyasi jarayonini jadallashtiryapti.

Ingliz tili hind-yevropa tillari oilasining german guruhiga kiradi. O'zbek tiliga inglizcha so'zlarning o'zlashish yo'llari turlichadir. Agar tushuncha aynan o'zbekcha nomlanishga ega bo'lmasa yoki o'zining ijobiy va samarali ta'siriga ega bo'lsa, to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirilmogda. Masalan, chat(chat) – suhbat, bifshteks(beefsteaks) – qovurilgan mol go'shtini qaylaga solib beriladigan ovqat turi. Shu kabi so'zlarning o'zbek tilida aniq va lo'nda izohi yo'q. Shuning uchun ular ingliz tilidan o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri kirib kelgan. Hozirgi paytda radioeshittirish, OAV, gazeta va jurnallarda ko'plab inglizcha o'zlashma so'zlarga ko'zimiz tushadi. Mashhur siyosiy arboblari, siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar o'zlarining nutqlarida ilmiylikni ifodalash uchun ko'plab o'z sohalariga doir inglizcha neologizmlardan foydalanishadi. Jumladan, kosmodrom, konflikt, televideniye, tender, reyting, marketing kabi so'zlar ham o'zining qo'llanilish doirasi va sohasiga ega. Mustaqillikdan so'ng tilimizga brifing – briefing, injenering – engineering, imidj – image, visual – visual, organayzer – organizer kabi so'zlarning kirib kelishi tezlashdi.

Shuni ta'kidlash joizki, ingliz tilidan o'zbek tiliga so'zlar o'zlashganda ularning tuzilishi yoki semantik mohiyati o'zgarishini ham kuzatish mumkin. Ayrim so'zlar o'zining asl ma'nosini saqlab qolgan holda o'zgarsa, ayrimlarida esa ma'no kengaygan, ma'no toraygan yoki umuman ma'nosi tubdan farq qilishi mumkin. Bu o'rinda tilshunos olim N.Mahmudov ta'kidlaganidek, o'zbek tilidagi xorijiy o'zlashmalarning me'yori va milliyligi malasalasi ma'naviy-madaniy sohalar doirasida favqulodda ahamiyatga molik ekanligini



hamisha yodda saqlash lozim. Ya'ni har bir o'zlashayotgan so'z o'zining milliyligi, ma'nosi jihatidan o'zbek mentalitetiga mos kelishi va haqiqatan ham bu so'z o'zbek tili lug'atiga kerakligi jihatidan tahlil qilinishi kerak. Eski nashrdagi "O'zbek tilining izohli lug'ati" ga 80 ga yaqin inglizcha o'zlashmalar kiritilgan bo'lsa, yangi nashrdagi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da 500 dan ortiq inglizcha o'zlashma so'zlar izohlangan.

Shuningdek, "O'zbek tiliga o'zlashgan inglizcha so'zlarning izohli lug'ati"da 350 dan ortiq so'z, bundan tashqari, vaqtli matbuotda qo'llanilayotgan neologizmlar, "Ingliz, o'zbek, rus axborot texnologiyalari va internetga oid qisqacha atamalar lug'ati" dagi inglizcha o'zlashmalar hisobiga mingdan ortiq leksemalar qo'shilgan.

ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov N. Olamning lisoniy manzarasi va so'z o'zlashtirish // O'zbek tili va adabiyoti. 2015. №3. – B. 9.
2. Jomonov R. O. O'zbek tilida so'z o'zlashtirish va imlo muammolari. – Toshkent: O'zbekiston, 2013. – B. 38.
3. Madvaliyev A. O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. -Toshkent: O'ME, 2017. – B. 214 bet.
4. To'raxojayeva A.X. Mustaqillik sharoitida o'zbek tili ijtimoiy-siyosiy leksikasining taraqqiyoti. –T.: Filol. fan.nomzodi diss... avtoref., 2012. –B. 20
5. Xamrayeva Y. O'zbek tilining o'quv ideografik lug'atini yaratish tamoyillari: Filologiya fanlari nomzodi....diss. avtoref. – T., 2010. 6-b.